

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLARNING AHAMIYATI

Usmonov Murodjon Ibrohim o'g'li

Successland o'quv markazi katta "Arab tili" o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida va kelajakka daxildorlik hissi bilan tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlar hamda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: yoshlar, vatanparvarlik, vatan, ma'naviyat, ma'rifat, intellektual salohiyat armiya. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ma'naviy-ma'rifiy ishlar davlatimiz siyosatining muhim ustivor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi. Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrdanoq, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlarida, bir so'z bilan aytganda ma'naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o'zgarishlar paydo bo'la boshladi. Chunki, mustaqillik erkinlik, milliylik, vatanparvarlik darvozalarini ochib, insonlarni ezgulik sari boshladi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev – "Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda", - deb bu borada qilishimiz lozim bo'lgan ishlar haqida aniq vazifa va ko'rsatmalarni berib o'tdilar.

Bu so'zlar zahirida hali oldimizda bu sohada juda ko'p ishlarni qilishimiz lozimligini hayotni o'zi isbotlamoqda. Milliy Vatanparvarlik haqida so'z borganda, bu

o'zbek xalqining qoniga singib ketgan iymon, insof, mehr-muhabbat, oqibat, shavqat, or-nomus, ona yurtiga, o'z eliga sadoqat ahloqiy ma'naviy qadriyatlar, g'oyalar, qarashlar yig'indisi tushuniladi. Ta'lim muassasalarida ham Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tarbiyalash ta'limining asosiy mazmunini tashkil etmoqda.

Vatanparvarlik histuyg'ularini shakllantirishda O'zbekistonning davlat ramzlari bayroq, gerb, madhiya, o'zbek tili, Konstitutsiya va boshqa shu millatga, shu zaminga xos, mos bo'lgan tuyg'ular, fazilatlar o'tkazilayotgan madaniy-ma'rifiy faoliyatda o'z aksini topmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi masalalardan bo'lganligi bois, bunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo'l xaritalarida belgilangan vazifalardan iborat ishlarni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Vatanparvarlik mavzusida juda ko'p olim-u ulamolarimizning ijod namunalariyu, bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Amir Temur,

Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya'ni bizning zamonamizda ham o'ziga xos o'rin egallagan bo'lib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo'llanib kelinmoqda. Vatan tushunchasini har kim har xil ma'noda, o'zining tushunish darajasida talqin qiladi.

Bu - insonning tug'ilgan, kindik qoni to'kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o'tadigan, ta'lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo'msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo'lida xizmat qilish, uni yomon ko'zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha'nini himoya qilish - bularning barchasi siz u bizning oldimizda turgan mas'uliyatli vazifalardandir.

Vatan tushunchasini, uni sevish, ardoqlash, himoya qilish tuyg'usi nafaqat insonda, balki hayvonot olamida ham kuzatish mumkin. Baliq suvga, hayvon o'zining iniga, hasharot uyasiga intiladi.

O'sha tafakkur qilmaydigan jonzotlar ham, hasharotlar ham o'zining uyini taniydi, uni quradi, unda jufti bilan yashab, naslini davom ettiradi, zarur paytda uni himoya qiladi. Shunday ekan, aqlu zakovat, tafakkur ato etilgan, borliqdagi mavjudotlarning gultoji

bo'lgan insonda esa bu tuyg'u yuksak darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami kundan-kunga kengayib bormoqda. Jumladan, yurtboshimiz topshiriqlariga asosan Vazirlar mahkamasi tomonidan 2023-yil 29-iyun kuni "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" nomli konsepsiya ishlab chiqildi. Konsepsiyada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda olib boriladigan ishlar tizimli ravishda belgilab berildi hamda mazkur ishlar samaradorligini ta'minlash maqsadida yo'l xaritasi tuzildi. Xususan, konsepsiyaning maqsad va vazifalari quyidagicha belgilandi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog'liq bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish,

Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni mustahkamlashdan iborat. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi: yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari, ma'naviy sifatleri va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaning yagona tizimini yaratish; yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongu- shuuriga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish; buyuk tariximiz, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning jahon sivilizatsiyasi hamda harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissalarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish; Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz ko'rsatgan vatanparvarlik va qahramonlik, ulardagi sadoqat, fidoyilik, matonat hamda jasorat kabi xislatlarni, shuningdek, yurt, oila, ota-ona va farzandlar himoyasi xalq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanini yoshlar ongiga singdirish; yoshlarda yon- atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali

tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish; hududlarda turkum harbiy- vatanparvarlik tadbirlari hamda “Jasorat maktabi” nomli harbiy-vatanparvarlik o‘quv yig‘inlarini o‘tkazish orqali yoshlar ongida milliy armiyamizga bo‘lgan ishonch va hurmatni yanada oshirish, harbiy xizmatni o‘tash O‘zbekiston fuqarosining muqaddas burchi ekanligi haqidagi tushunchalarni mustahkamlash; umumta’lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qitilishining sifatini oshirish, o‘quv- moddiy bazani mustahkamlashga asosiy e’tibor qaratish hamda shu orqali o‘quvchi yoshlarda harbiy xizmat, uni o‘tashning huquqiy asoslariga oid bilimlar va boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik darajasini oshirish; O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar orqali yoshlar ommasiga keng yetkazish; yoshlarda ajdodlarimiz va ota- bobolarimizning Vatanni himoya qilishga oid an’ana va qadriyatlariga sadoqatli bo‘lish xususiyatlarini shakllantirish; Vatanni himoya qilish, uni asrash to‘g‘risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo‘yicha shaxsiy e’tiqodni shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma’naviyruhiy tayyorgarliklarini oshirishga yordam beruvchi ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish. Mazkur konsepsiya ijrosini ta’minlashga javobgar vazirlik va idoralar tomonidan tizimli tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Mudofaa vazirligi tomonidan konsepsiya yo‘l xaritasida belgilab berilgan vazifalar a’lo darajada bajarib borilmoqda. Xususan, “Mard askar — yoshlarga namuna” shiori ostida harbiy qismlar, “Vatanparvar” bog‘larida hamda olis hududlarda harbiy texnika va qurol- aslahalar namoyishi, harbiy xizmatchilarning qo‘l jangi bo‘yicha, harbiy orkestr va badiiy havaskorlik jamoalarining ko‘rgazmali chiqishlari namoyish etilmoqda. Shuningdek oliygohlar va maktablarda hattoki yurtimizning olis hududlarida ham “Uch avlod uchrashuvi”, “Qomondon va yoshlar” nomi ostida uchrashuvlar o‘tkazilmoqda. Bundan tashqari uyushmagan yoshlar bilan alohida tizimli faoliyat olib borilmoqda. Ular bilan “Harbiy qismda bir kun ” nomi ostida samarali tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarda yoshlarni kelajakka daxldorlik hissini uyg‘otish, ularda vatanga bo‘lgan

muhabbat, vatanparvarlik, fidoiylilik, jasurlik va sadoqat kabi xislatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, "Xalq va armiya — bir tanu, bir jondir!" degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish lozim.

FOYDALANAYOTGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyundagi "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risidagi Farmoni. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-406-son).

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" №267 sonli qarori

3. Sayfullayev B., Rustamov V. (2016). Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, 4. Xoji Ahmadjon Bobomurod. (2008). Islom odobi va ahloqi. Toshkent, 15 b.

4. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.

5. "O'zbekiston armiyasi" jurnali 3-son 2024-yil 14-noyabr

6. "Vatanparvar" gazetasi 2024-yil 15-noyabr

7. Z. Sh. Dolimov, Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug'ati. T-2007. 230-243 b.